

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHDAGI
MUAMMO VA YECHIMLAR TAHLILI
АНАЛИЗ ПРОБЛЕМ И РЕШЕНИЙ В УСТРАНЕНИИ
МАССОВЫХ БЕСПОРЯДКОВ
ANALYSIS OF PROBLEMS AND SOLUTIONS IN
MANAGING PUBLIC DISORDERS

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti Magistratura tinglovchisi
podpolkovnik Ergashev Anvar Ashrafovich*

Annotatsiya: Ushbu maqola ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishdagi muammolar va yechimlarni tahlil qiladi. Huquqiy asoslarning zaifligi, xodimlarning tayyorgarlik darajasining pastligi, ijtimoiy beqarorlik va siyosiy norozilik kabi asosiy omillar ko'rib chiqiladi. Yechim sifatida huquqiy bazani kuchaytirish, politsiyaning maxsus tayyorgarligini oshirish, ijtimoiy siyosatni yaxshilash taklif etiladi. Real misollar asosida samaradorlik baholanadi.

Kalit so'zlar: ommaviy tartibsizliklar, kuch tuzilmalar xodimlarining tayyorgarligi, huquqiy asoslar, ijtimoiy islohotlar, jamoatchilik ishtiroki, inson huquqlari, tinch namoyishlar, barqarorlik, xavfsizlik.

Аннотация: В статье анализируются проблемы и решения при подавлении массовых беспорядков. Рассматриваются такие факторы, как слабость правовой базы, недостаточная подготовка полиции, социальная нестабильность и политические протесты. В качестве решений предлагается укрепление правовых основ, повышение квалификации полиции и улучшение социальной политики. Эффективность оценивается на основе практических примеров.

Ключевые слова: массовые беспорядки, подготовка сотрудников силовых структур, правовые основы, социальные реформы, участие общественности, права человека, мирные демонстрации, стабильность, безопасность.

Abstract: This article analyzes the problems and solutions in managing mass riots. Key factors such as weak legal frameworks, insufficient police preparedness, social instability, and political protests are examined. Proposed solutions include strengthening legal foundations, enhancing police training, and improving social policies. Effectiveness is assessed through practical examples.

Key words: mass disorders, training of law-enforcement personnel, legal foundations, social reforms, public participation human rights, peaceful demonstrations, stability, Security.

Kirish

Ommaviy tartibsizliklar zamonaviy jamiyatlarda tez-tez uchrab turadigan ijtimoiy hodisalardir. Ular ko‘pincha siyosiy, iqtisodiy yoki ijtimoiy sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Ushbu tartibsizliklar davlat xavfsizligi, ijtimoiy barqarorlik va fuqarolarning huquqlariga jiddiy tahdid soladi. Shu sababli, ularni samarali boshqarish va bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ommaviy tartibsizliklar — bu ma’lum bir hududda ko‘plab shaxslarning ishtirokida yuzaga keladigan, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy tartib, qonuniylik va tinchlikni buzadigan hodisalar hisoblanadi. Ular ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, zamonaviy jamiyatlarda keng tarqalmoqda. Masalan, Tiananmen Squaredagi 1989-yildagi namoyishlar buning muhim misoli sanaladi — taxminan bir million kishini o‘z ichiga olgan bu namoyishlar davlat tomonidan zo‘ravonlik bilan bostirilgan. [1]

Ommaviy tartibsizliklar har doim ham jamoat tartibini buzuvchi hodisalar sifatida qaraladi, ammo ularning sabablari va natijalari har doim murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ko‘zgusi hisoblanadi. Mamlakatlar uchun ommaviy tartibsizliklarni samarali bartaraf etish — bu nafaqat xavfsizlik masalasi, balki siyosiy barqarorlik va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun muhimdir.

So‘nggi yillarda dunyo bo‘ylab noroziliklar soni oshib bormoqda — iqtisodiy notenglik, siyosiy beqarorlik, korrupsiya, fuqarolarning huquqlari cheklanishi kabi omillar bu holatga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, ommaviy tartibsizliklarni

boshqarishda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llarini chuqur o‘rganish lozim.



Китай, 1989 год. Студенческий протест на площади Тяньаньмэнь, фото Иржи Тондля

Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari.

Ijtimoiy-iqtisodiy sabablari shundaki, fuqarolar orasida resurslar va imkoniyatlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi. Shundan kelib chiqib aholining katta qismi daromad manbaiga ega bo‘lmaydi yoki juda past daromadga ega bo‘ladi, ijtimoiy norozilik ortadi. Bu norozilik vaqt o‘tishi bilan kollektiv norozilik harakatlariga aylanadi. Misol qilib aytganda **2021-yil Qozog‘istonda sodir bo‘lgan tartibsizliklar** yoqilg‘i narxlarining keskin oshirilishi, aholi daromadlarining pastligi va iqtisodiy tengsizlik ommaviy norozilikka sabab bo‘lgan. [2]

Ijtimoiy adolatsizlikda esa jamiyatda imkoniyatlar teng bo‘lmasa, mansabdorlar korrupsiya bilan shug‘ullansa, aholining davlat tizimiga ishonchi pasayadi. **Binga misol Braziliyada 2013-yilgi tartibsizliklar** – transport narxi ko‘tarilgani, korrupsiya va davlat xizmatlarining past sifati xalq noroziligiga sabab bo‘lgan.

Siyosiy omillari shuki siyosiy tizimdagi adolatsizlik va korrupsiya. Saylovlarda adolatsizlik sezilsa, siyosiy jarayonlar ustidan nazorat yetarli bo'lmasa, namoyishlar ko'payadi. Bunga yaqqol musol **2020-yil Belarus Respublikasida sodir bo'lgan ommaviy tartibsizliklar**, saylov natijalari ustidan ishonchsizlik ommaviy noroziliklarga sabab bo'ldi. Bundan tashqari siyosiy erkinliklarning cheklanishi musol tariqasida so'z erkinligi, yig'ilishlar erkinligi yoki matbuot erkinligi cheklanganda, norozilik yashirin ravishda yig'ilib, bir vaqtda kuchli portlashga aylanadi.

Huquqiy omillarga esa qonunlarning aniq belgilanmaganligi yoki ularning adolatsiz qo'llanilishi, kuch tuzilmalarining hadidan oshishi bunda ortiqcha kuch ishlatishi, noqonuniy hibslar, muomala madaniyatining pastligi va Sud tizimiga ishonchsizlik ommaviy noroziliklarga sabab bo'ldi. Misol tariqasida **2020-yil AQSh ("Black Lives Matter") tartibsizliklari** — politsiya tomonidan zo'ravonlik holatlarining ko'pligi ommaviy namoyishlar va tartibsizliklarga olib kelgan. [3]

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonidagi muammolar.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida kuch tuzilmalar shaxsiy tarkibining tayyorgarlik darajasi yetarli emasligi, huquqiy bo'shliqlar, jamoatchilik bilan muloqotning sustligi, soxta (yolg'on) axborotlar va provokatsiyalar, kuch tuzilmalarning favqulodda rejaga tayyorgarlikning yetishmasligi va boshqa bir qancha omillar ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishdagi muammolardir.

Ko'p mamlakatlarda ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida bir qator muammolar kuzatiladi. Bulardan kuch tuzilmalar shaxsiy tarkibining tayyorgarligi yetarli emasligi, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishga jalb etilgan xodimlarning tayyorgarligi quyidagi yo'nalishlarda sust bo'lishi mumkin: rahbarlarning o'z vaqtida qaror qobul qilmasligi, taktik harakatlarni bilmaslik, emotsiyalarni boshqarish qobiliyatining pastligi, jamoa bilan muzokara boshlash ko'nikmalarining yetishmasligi, zamonaviy jihozlarning kamligini va boshqa ko'p musollarni takidlash mumkin. Bu esa vaziyatni yanada keskinlashtiradi va tartibsizliklarni bartaraf etish o'rniga chuqurlashtiradi.[4]

Huquqiy bo'shliqlarning mavjudligi ham ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida bir qator muammolarga sabab bo'ladi. Bu muammolarga ommaviy tadbirlarni tartibga soluvchi qonunlarning aniq emasligi, izchil qo'llanmasligi, xalqaro standartlarga mos kelmasligi va boshqalar musol bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik bilan muloqotning sustligi ko'plab davlatlarda aholi bilan muloqot tizimi yetarli emasligidan dalolat beradi. Bular aholi dardiga quloq tutilmasligi, mahalla va nodavlat sektorning jarayonga jalb qilinmasligi, shaffoflikning sustligi va boshqalarda ko'rish mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan vahima, g'azab, agressiya, tashkilotchilarsiz olomon to'planishi kabi yolg'on xabarlar jarayonlarni tezlashtiradi. [5]

Favqulodda rejaga tayyorgarlikning yetishmasligi ham ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida bir qator muammolarga sabab bo'ladi. Bu muammolarga evakuatsiya yo'llari, tezkor tibbiy yordam, ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish jarayonida kuch tuzilmalarning taktik zaxiralari yetarli darajada mavjud emasligidir.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish bo'yicha yechimlar

Huquqiy bazani kuchaytirish maqsadida qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, tinch yig'ilishlar to'g'risidagi qonunlarni takomillashtirish, kuch ishlatish standartlarini aniqlashtirish va boshqa zaruriy choralar ko'rish bilan amalga oshiriladi.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish tadbirlariga jalb etiladigan bo'linmalarning hamkorligini kuchaytirish, birgalikdagi o'quv mashg'ulotlarini tashkillashtirish, ular uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish va kundalik faoliyatda jamoat tartibini saqlash tadbirlarida birgalikda xizmat olib borishni yo'lga quyish bilan amalga oshirish mumkin.

Jamoatchilik bilan ishlash tizimini takomillashtirish borasida bir qator ishlarni, jumladan, murojatlar tizimini raqamlashtirishni yanada rivojlantirish, fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikni mustahkamlash, mediasavodxonlik dasturlarini

kengaytirish va yanada rivojlantirish, davlatning tezkor axborot almashish kanallarini joriy etish bilan erishiladi.

XULOSA

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish — bu nafaqat kuch ishlatish orqali hal etiladigan jarayon balki butun jamiyat tomonidan bartaraf etiladigan jarayondir. So‘ngi yillarda yuz berayotgan ommaviy tartibsizliklarga qarshi ishlatiladigan taktikalar o‘rganilganda, Bu jarayonga ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik, jamoatchilik ishonchi, huquqiy islohotlar, kuch tuzilmalarining professional tayyorgarligi bilan chambarchas bog‘liq majmuaviy jarayondir.

Har bir mamlakatning ommaviy tartibsizliklarga javobi shaffof va inson huquqlariga asoslangan bo‘lishi kerak. Bunday tizimli yondashuv jamiyat barqarorligini ta’minlashning eng ishonchli yo‘lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. wikipedia.org/wiki/1989_Tiananmen_Square_protests_and_massacre?utm_source=chatgpt.com#/media/File:Události_na_náměstí_Tian_an_men,_Čína_1989;
2. <https://lup.lub.lu.se/luur/download?func=downloadFile&recordId=9045036&fileId=9045037>;
3. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*;
4. Amnesty International Reports (2020–2023);
5. Goldstein, J. (2020). *Policing Protests*;
6. OSCE/ODIHR (2019). *Guidelines on Freedom of Peaceful Assembly*.